



## «AKUSTIKA» MAVZUSINI AMALIY DASRNI SIFATIDA MODUL TIZIMIDA O'TISH

*Ahrorov Ma'ruf Nasimjonovich**Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, assistant*

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti “Tibbiy va biologik fizika” kursida o’zliksiz ta’limning asosiy bo’lagi bo’lgan bakalavrlarni o’qitish modul tizimiga o’tqazilgan [1]. Tibbiy va biologik fizika fani birinchi kursda bir o’quv yilida o’tkazilib, ma’ruza darsi 20 soat, amaliy dars 60 soat, ikki semestr 30 soat 1 kreditdan ikki semestrda o’tiladi [2]. Ushbu maqolada «Eshitish fizikasi. Infratovush, tovush va ultratovush» mavzusidagi bir juftlik amaliy darsni modul tizimida o’tilishini ko’rib chiqilgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz bo’ylab koronavirus pandimiysi tarqaganligi uchun mamlakat bo’ylab karantin holati joriy qilingan ayni vaqtida amaliy darslarni modul tizimida o’tish katta ahamiyat kasb qiladi.

**I. Modul tizimidagi amaliy ko’rsatmalar qismi.**

1. Eshitish fizikasi.
2. Tovush to’lqinlarining ob’ektiv va sub’ektiv tavsiflari.
3. Klinikada tovushlar bilan tekshirish.
4. Audiometriya.
5. Ultratovush apparatlari.
6. Ultratovushdan tashxisda va davolashda foydalanish.

**Darsning vaqtlar bo‘yicha taqsimoti:**

1. O’tgan mavzu yuzasidan nazorat savollarga berilgan yozma javoblarni tekshirish (**15min.**).
2. Modul tizimida berilgan nazariy savollarni tahlil qilish (**40 min.**):
  - a) Infratovush to’lqinlari.
  - b) Tovushning fizik (ob’ektiv) va fiziologik (sub’ektiv) tavsifi. Veber-Fexner qonuni.
  - s) Auskultatsiya. Perkussiya. Fonokordiografiya.
  - v) Eshitish bo’sag‘asida eshitish o’tkirligini aniqlash. Audiometrning ishlash tamoyillari.
  - g) Audiogramma olish.
  - d) Ultratovush tashxisining fizik asoslari. Exolokatsiya. Dopplerografiya.
  - ye) Ultratovushning biologik muhitlar bilan o’zaro ta’siri.
  - j) Ultratovush datchiklari.
  - z) Ultratovush terapiyasi.
3. Test savollarini yechish (**20 min.**):
  - a) O’rganuvchi testlar
  - b) Vaziyatli testlar
  - v) Nazorat testlar
4. Xulosa (**5 min.**).
5. Talabalarning darslardan so‘ng mustaqil mashg‘ulotlari (**50 min.**).  
O’tilgan mavzu yuzasidan talaba o’rganiuvchi va vaziyatli testlar yechib, o’zining o’shlashtirish darajasini modul tizimida tekshirib ko’radi.

**Mavzu yuzasidan talaba bilishi kerak:**

1. Tovushning tavsiflari.
2. Infratovush, tovush, ultratovush.
3. Infratovush to’lqinlarining tibbiyotda qo’llanilmasligi sabablari.
4. Tovush intensivligi.
5. Veber-Fexner qonuni.
6. Teskari pezo effekt hodisasi.



7. Klinikada tovush orqali tekshirish usullari.
8. Audiometrning tuzilishi va ishlash tamoyillari.
9. Audiogramma olish.
10. Exolokatsiya.
11. Dopplerografiya.
12. Chstotalar bo‘yicha siljish qonuni.
13. Ultratovush terapiyasi.

## II. Modul tizimidagi amaliy dars.

(Modul tizimida amaliy dars qismi matnini qisqacha taqdimi).

Chastotasiga qarab tovush to‘lqinlari uch guruhga ajratiladi [3]:

- 1) (0-16) Gs Infratovush to‘lqinlari.
- 2) (16-20000) Gs Eshitish sohasi (tovush to‘lqinlari).
- 3) (20000-10<sup>11</sup>) Gs Ultratovush to‘lqinlari.

Tovush to‘lqinlari uch guruhga bo‘linadi:

- 1) Ton.
- 2) Shovqun.
- 3) Tovush zarbi.

Garmonik qonunlar bo‘yicha bo‘ladigan tovush to‘lqinlariga oddiy tonlar deyiladi. Agar ton garmonik bo‘lmagan tebranishlardan tashkil topgan bo‘lsa, bunday tonga marakkab tonlar deyiladi. Murakkab tonni asosiy ton, ya’ni eng kichchik chastotadagi ton va boshqa tonlar obertonlar deyiladi. Tovush to‘lqin bo‘ganligi uchun amplitud, davr, chastota, faza va kabi fizik kattaliklar bilan (ob’ektiv tavsifi) bir qatorda to‘lqin intensivligi (to‘lqinning energetik tavsifi) tovush to‘lqinlarini vaqt biriligidagi to‘lqinning tarqalish yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lgan birlik yuzadan olib o‘tayotgan energiyasi tushiniladi

$$I = 1/2\rho\vartheta\omega^2 A^2$$

bu yerda  $\rho$ -muhntning zichligi,  $\vartheta$ -to‘lqinning tarqalish tezligi,  $\omega$ -siklik chastota, A-to‘lqin amplitudasi [4].

Tovush bosimi deb havo zarrachalarini tovush to‘lqinida zichlashib yoki siyraklashib atmosfera basimidan farqli hosil qilingan bosimiga aytildi. Tovush bosimi intensivlik bilan

$$I = \frac{P^2}{2\rho\vartheta}$$

formula bilan bog‘langan. Bu yerda R-tovush bosimi,  $\rho\vartheta$ -akustik qarshilik (impedans) deyiladi. Tovushning ob’ektiv tavsiflari bilan bir qatorda fiziologik (sub’ektiv) tavsiflari bo‘lib, ular uzviy quyidagicha bog‘langan:

1. Chastota↔ tonning balandligi.
2. Intensivlik↔ tovush qatiqligi.
3. Garmonik spkektr↔ membr.

Klenik tekshirishlarda tovushning eshitish bo‘sag‘asi yoki berilgan chastotaga mos kelgan tovush intensivligi (eng kichik tovush bosimi) o‘lchaniladi. Chastotasi 1000 Gs bo‘lgan tovush to‘lqini uchun:

1.  $I_0=10^{-12} \text{ Vt/m}^2$ -eshitish bo‘sag‘asi,  $R_0 \approx 10^{-5} \text{ Pa}$  -eshitish bo‘sag‘asi bosimi.
2.  $I=10 \text{ Vt/m}^2$  –og‘riqni sezish bo‘sag‘asi,  $P=60 \text{ Pa}$ -og‘riqni sezish bo‘sag‘asiga mos kelgan bosim.

Bu intensivlik nisbatlari  $10^{13}$  bo‘lib juda katta raqamdir. Shuning uchun intensivlik darajasi shkalasi tushunchasini kiritamiz. Intensivlik darajasi shkalasi Bell larda o‘lchanadi.





Tovush qattiqligi darajalari shkalasini tuzish asosida Veber –Fexnerning muhim psixofizik qonuni yotadi. Bu qonunga muvofiq agar ta'sirot geometrik progressiya bo'yicha ortib borilsa, u holda bu ta'sirotning sezilishi arifmetik progressiya bo'yicha oshib boradi. Agar intensivliklari I va  $I_0$  bo'lgan ( $I_0$ -eshituv bo'sag'asi) ikki tovush ta'sir qilayotgan bo'lsa, Veber-Fexner qonuniga binoan biror tovushning qattiqligi unga nisbatan intensivlik bilan quyidagicha bog'langan:

$$E = k_{lg}(I/I_0)$$

bu yerda k-proporsionallik koeffitsienti bo'lib, u chastota va intensivlikka bog'liq. Tovushning qattiqligi Fon larda o'lchanadi [4.5].

Ikkita tovush qabul qilish sistemasiga ega bo'lgan odamlar va hayvonlar tovush manbaiga tomon yo'naliш gorizontal tekislikda ham o'zgartirishga qodirdir, uning sababi shundaki, tovush manbadan quloqlargacha turlicha masofani bosib o'tgan uchun o'ng va chap quloqlar suprasiga tushayotgan to'lqinlar orasida fazolar farqi paydo bo'ladi. Agar tovush manbai odamning yuzi ro'parasida turgan bo'lsa, unda  $\delta = 0$ ,  $\Delta\varphi = 0$  bo'ladi, agar tovush manbai quloq suprasining bir tomoni qarshisida jöylashgan bo'lsa, u holda ikkinchi quloq suprasiga tovush kechikib yetib keladi. Taxminan tovush to'lqini bosib o'tgan yo'llar ayirmasi  $\delta$  ikkala quloq supralari orasidagi masofaga teng.  $\delta = 0,15 \text{ m}$  va  $v = 1 \text{ kGs}$  qiymatlarida hisoblash mumkin. U taxminan  $180^\circ$  ga teng [3.4].

Gorizontal tekislikda tovush manbai tomon turli yo'naliшlarga quloq suprasiga kelayotgan tovushlarning yo'llar ayirmasi  $\delta = 0,15 \text{ m}$ , chastota  $v = 1 \text{ kGs}$  bo'lganda  $0^\circ$  dan  $180^\circ$  gacha bo'lgan fazalar farqi mos keladi. Normal eshitish qobiliyatiga ega bo'lgan odam, tovush manbaiga nisbatan quloq suprasining burilishini  $3^\circ$  gacha anqlikda sezaladi, bunda fazalar farqi  $6^\circ$  ga mos keladi. Shu sababli aytish mumkinki, odam fazalar farqi  $6^\circ$  gacha o'zgaradigan tovushlarni farqlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari modul tizimida klinikada tovush orqali tekshirish usullari, audiometriya, ultratovush to'lqinlari bilan tekshirish usullar exolokatsiya va Dopplerografiya, ultratovush to'lqinlari terapiyasi matnlari berilgan, biz yuqoridaqilarga batafsil to'xtamadik [5].

O'tilgan mavzu yuzasidan nazorat savollar:

1. Odam qulog'i qabul qiladigan elastik tebranishlar va to'lqinlar chastotasi.
2. Tashqi, o'rta va ichki quloqlarning tuzilishi.
3. Nog'ora pardadan qisman qaytgan nurlar interferensiyasi natijasida hosil bo'ladigan akustik rezonans chastotasini toping.
4. Ichki quloq suyuqligining to'lqin qarshiligi qaysi suyuqliknigiga tenglashtirilgan.
5. O'rta quloq tashqi tovush bosimini ichki quloqqa qanday oshirib beradi?
6. Eshitish organlarida tovushni o'tkazuvchi sistemalarni aytинг?
7. Chig'anoq retseptor apparatining jaroxatlanishi nimaga olib keladi?
8. Ultratovush deb nimaga aytildi?
9. Teskari pezoelektrik effekt hodisasi nima?
10. Ultratovushning ikki muxitdan qaytish chegarasi nimadan bog'liq?
11. Ultratovush to'lqinlarining suyak usti pardasi ichki organlar sirtlaridan juda yaxshi qaytishi nimaga bog'liq?
12. Lokatsiyasi deb nimaga aytildi?
13. Kovitatsiya nima?
14. Dopler effekti nima?
15. Biologik ob'ektlarga ultratovush to'lqinlari bilan ta'sir etganda yuz beradigan fizik jarayonlarning asosiy effektlari?
16. Ultratovush osteosintezi?
17. Ultratovush terapeyasi?



**18. Ultratovushdan farmatsiyada foydalanish?**

**III. Modul tizimida «Bioakustika asoslari» mavzusi yuzasidan ma’ruzalar matni berilgan.**

1. Ma’ruzalar taqdimoti berilgan.
2. Modul tizimida quyidagi konspektlar berilgan:
  1. To ‘lqin uzunlik va chastota.
  2. So ‘nuvchi tebranishlar.
  3. Tovush to ‘lqinlaridagi havo zarrachalarini ko ‘chishi.

Talabaning bilim darajasini baholash:

- I. O‘rganuvchi testlar.
- II. Vaziyatdan kelib chiquvchi testlar.
- III. Nazorat testlaridan olgan ballari. Berilgan nazorat savollariga yozgan javoblari va modul tizimidagi faolligi orqali baholanadi.

Modul tizimida o‘qitishning avfzalliklari:

- 1.Talaba hohlagan vaqtida tizimga kirib, u yerdagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishi mumkin.
- 2.Kerakli adabiyotlar bilan modul tizimida ishlash imkonи mavjudligi.
3. Mavzuga doir vedio roliklar bilan tanishish imkoniyati mavjudligi.
4. Mavzu yuzasidan o‘rganuvchi testlar, vaziyatdan kelib chikuvchi testlarni yechib, bilimini mustahkamlash imkoniyati mavjudligi.
5. Darsning oxirida yechilgan nazorat testlar esa, ogzaki so‘rovlар bilan birlgilikda umumlashtirilgan holda talaba bilimini baholashda qulaylilik yaratadi.
6. Professor -o‘qituvchilar talabalarning berilgan mavzu yuzasidan faolligini, bilim darajasini nazorat kilish imkoniyati mavjudligi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Moodle.sammi.uz. Modul 1.Zanyatiya 2. Tema 7.
2. M.X. Jalilov., J.X.Xamroev., M.N.Axrорov. “Rentgen nurlari. Ionlantiruvchi nurlanishlarning moddalarga ta’siri” ni o‘rganish mavzusini modul tizimida o‘qitish. Sbornik materialov mejdunarodnoy uchebno-metodicheskoy konferensii. Toshkent. Institut stomotologii. 7 yanvar. 2020 g.s.140-143
3. A.N.Remizov. A.G.Maksina. A.Ya. Potapenko “Meditinskaya i biologicheskaya fizika” 2011, s. 71-91
4. A.N.Remizov., “Tibbiy va biologik fizika”. Toshkent 2005, 116-135 bet.
5. M.Ye. Bloxina., I.A.Essaulova., G.V.Mansurova., “Rukovodstvo k laboratornym rabotam po meditsinskoy i biologicheskoy fizike”. M. 2011. s.44-52